

## HAMKORLIKDAGI TA'LIMNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

Muradova Maftuna Komilovna

Nizomiy nomidagi TDPU,

"Umumiy pedagogika" kafedrası o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7329231>

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda hamkorlikdagi pedagogik jarayonni psixologik jihatdan loyihalash mahoratini rivojlantirish yo'llari, unga qo'yiladigan talablar, talabalarga psixologik ta'sir etish orqali ularning hamkorlikdagi pedagogik jarayonini olib borish va ularning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik hamkorlik, hamkorlik strategiyalari, o'qituvchi faoliyati, muloqot, pedagogik-psixologik talablar, pedagogik mahorat, talabalar, verbal muloqot, noverbal muloqot.

Ijtimoiy pedagogika va psixologiyada hamkorlikdagi faoliyat – birgalikda faoliyat ko'rsatadigan sub'ektlarning tashkillashtirilgan tizimini ifodalaydi. Bunday hamkorlik o'quv faoliyatini birgalikda faol tarzda amalga oshirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Birgalikdagi faoliyatning farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi [2]:

- jarayon ishtirokchilarining makon va zamon doirasida birlashishlari, bunda jarayon sub'ektlari orasida bevosita aloqadorlik va muloqot muhiti vujudga keltiriladi. Ular harakatlar, axborotlar almashish, birgalikda faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar;
- jarayon sub'ektlari orasida yagona maqsadning mavjudligi — birgalikdagi faoliyat natijasidan xabardorlik, hamkorlikdagi faoliyat ishtirokchilaridan har birining ehtiyojlari va qiziqishlari, shuningdek, umumjamo'a manfaatlarining hisobga olinganligi;
- jarayon ishtirokchilari va rahbarining mavjudligi, ular orasidagi vazifalarning to'g'ri taqsimlanganligi;
- hamkorlikdagi faoliyat jarayonining ishtirokchilari orasida taqsimlanganligi, mazkur vazifalarning qo'yilgan maqsad, vazifalar, shart-sharoitlar, vositalar bilan o'zaro mutanosibli, ijrochilar tarkibi va ularning o'zlashtirish darajasiga ko'ra tasniflanganligi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bugungi kunda pedagogikada talabalar orasidagi hamkorlik faoliyatiga ijtimoiy-ruhiy uyg'unlashuvning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Ushbu uyg'unlashuv jarayoni o'zida talaba-yoshlarni mujassamlashtiradi.

Hamkorlikdagi faoliyat ko'p maqsadlilik xarakteriga ega. Bu esa uning ichki va tashqi tizim orasidagi aloqalari muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi. Individual

faoliyat me'vori mavjudlik shartlari hamda shaxsning o'zi va guruhli faoliyat jarayonidagi faolligi bilan bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Bu individual hamda birgalikdagi faoliyatning bir- birini to'ldirishi va boyishini ta'minlaydi. Shuningdek, hamkorlikdagi faoliyatning individual tarzda yo'naltirilgan hamda ijtimoiy me'yorlangan shart-sharoitlarini vujudga keltiradi.

Bu jarayonda o'qituvchi faoliyati o'zining aniq uslubiga ega bo'lishi lozim. Mazkur uslub quyidagilar bilan xarakterlanadi [4]:

- 1.Hissiy ko'tarinkilik hamda badiiy ijodkorlik uslubiga egalik.
- 2.Hissiy-metodik.
- 3.Bahs-munozara shaklidagi hamkorlik.
- 4.Fikriy-metodik.

O'qituvchilarning o'z faoliyatlari sub'ekti sifatida uzluksiz rivojlanishlarini ta'minlash quyidagi shart-sharoitlarga bevosita bog'liqdir:

- pedagogik hamkorlikka asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish hamda o'qituvchilarning uni samarali amalga oshirishiga tayyorlash;
- pedagogik hamkorlikka asoslangan ta'lim mazmuni va o'qituvchilarning uni amalga oshirishda metodik jihatdan tayyorlash tizimini joriy etish;
- o'qituvchilarni hamkorlikka asoslangan pedagogik jarayonni tashkil etishga tayyorlashga xizmat qiladigan metodik topshiriqlar bilan qurollantirish;
- o'qituvchilarning hamkorlikdagi ta'lim jarayonini amalga oshirish sohasidagi kompetensiyalarini rivojlantirish.

Birgalikdagi pedagogik faoliyat jarayonida talabalarning faoliyatlari ham muayyan darajadagi o'ziga xos tarkibga ega bo'ladi.

Faoliyatning ikkita mustaqil qirrasini – o'qish va o'rganish hamda o'qituvchi-talaba orasidagi muloqot tizimi hamkorlik jarayonidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. Bu o'rinda o'qituvchi va talaba orasidagi muloqot ular orasidagi munosabatlarining o'ziga xos ifodasi bo'la oladi. Shuning uchun ham pedagogik jarayondagi muloqot faoliyatning asosiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tizim o'qituvchi bilan talabalar orasidagi munosabatning mazmun-mohiyatini belgilaydi [5].

O'qituvchi mehnatining mazmuni – talabalarning aqliy-ruhiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishdan iborat. Bu jarayonda o'qituvchining talabalar muloqotga kirishishining asosiy usuli sifatida ruhiy hamkorlik qilishi namoyon bo'ladi.

Muloqot talabalarga ajdodlar merosini va o'zbek xalqining asrlar davomida yaratgan madaniy boyliklarini bevosita o'zlashtirish imkonini beradi. O'qituvchining nutqi asosiy vosita sifatida talabalarning madaniy boyliklar bilan muloqotga kirishishlarini ta'minlaydi. Ular o'qituvchining nutqi yordamida

tafakkur usullari va uning mazmunini o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham o'qituvchi yuqori darajadagi nutqiy madaniyat ko'nikmalarini egallagan bo'lishi, boy so'z zaxirasi, yuqori darajadagi talaffuz, ohang maromini o'zlashtirishi, aniq diksiyaga ega bo'lishi lozim.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi bilan talabalar orasidagi hamkorlikni o'rnatishda pedagogning nutqi asosiy o'rin egallaydi. Chunki o'qituvchining nutqi o'zaro muloqot va hamkorlikning verbal ko'rinishdagi tarkibiy qismi hisoblanadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pgina o'qituvchilar hanuzgacha noverbal muloqot mohiyatini to'laligicha anglab yetmaganlar. O'qituvchi bilan talabalarning o'zaro munosabatlarida noverbal muloqot bir qator yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- xatti-harakatlar yordamida;
- dahldorlik asosida;
- jestlar, ohanglar yordamida;
- muloqotdagi masofa orqali;
- vizual xarakterdagi o'zaro hamkorlik vositasida.

Biz o'qituvchi-talaba munosabatlari doirasida noverbal muloqotning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga harakat qildik. Muloqotning mimika bilan bog'liq jihati o'qituvchi va talabalar orasida aloqa o'rnatishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir- birlarining fikrlarini tez uqib olish imkonini beradi. O'z vaqtida amalga oshirilgan tabassum, o'ziga ishonchning o'qituvchi yoki talaba qiyofasida aks etishi muloqot qilishga moyillik, ular orasida ijobiy aloqa o'rnatilishiga asos bo'ladi.

Aksariyat o'qituvchilar yuzlariga maxsus ifoda berib talabalarga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'ladilar. Ularning yuzidagi qat'iy ifoda sinfda bosimni kuchaytiradi. O'qituvchining mazkur qiyofasi talabalarni mahv etish uchun o'ylab topgan yuz ifodasi garchand vaqtinchalik talabalarning intizomli bo'lishlari, yaxshi o'qishlariga ko'maklashib, pedagogning talabalar jamoasini boshqarishini osonlashtiradi. Shu bilan birga, o'qituvchi muayyan talabalarga nisbatan yuz qiyofasini o'zgartiradi. Biroq, pedagoglar bu kabi holatlardan uzoqlashishlari kerak [4].

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish bu yillar mobaynida davom etadigan, qiyinchilik, tushkunchik va zavq oladigan lahzalardan, g'alaba va mag'lubiyatdan iborat sermazmun, serqirra jarayon bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonda talabalarning nafaqat kompetensiyaviy tayyorgarligi mukammal darajagacha ko'tariladi, balki ularning jismoniy va irodaviy sifatlari

rivojlantiriladi, ular aqlan, axloqan, estetik jihatdan tarbiyalanadi. Bunday murakkab jarayonda talabalarni jismonan, kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish, fanga oid umumiy kompetensiyalarning shakllanishi, irodaviy jihatdan toblantirish, o'qituvchi va ota-onadan yuksak mahorat, har bir individual vaziyatda psixologik boshqaruvni va psixologik qonuniyatlarni o'z joyida qo'llashni talab etadi. Shunday ekan, yuqori darajali aqlan, axloqan, intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashda, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda psixologik qonuniyatlarni asosida yondashsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori // "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami" 2017 y., 10 aprel, 14-son, 230-modda.
2. Abdullajonova M., Isaqova M., Zokirova M., Isroiljonov S. Ijtimoiy psixologik treningdan praktikum. – F.: FarDU. 2013. – 68 b.
3. Bern E. Игры, в которые играют люди: Психология человеческого взаимодействия; Люди, которые играют в игры: Психология человеческой судьбы: Пер. с англ./ Общ. ред. М.С. Масковского. – М.: List-Nyu; Центр общечеловеческих ценностей, 2017. – 336 с.
4. Davletshin M. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – T.: O'zbekiston, 2009. №1. – 30 b.
5. Davletshin M.G., Do'stmuhammedova Sh., Mavlonov M., To'ychieva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2014. – 130 b.